



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **ALI BIN ABDULLOH SAMHUDIY ASARIDA MADINA SHAHARINING ISLIMGACHA VA ISLOM DAVRIDAGI IJTIMOYIY VA IQTISODIY HAYOTI**

**Soxibova Umedaxon Shuxrat qizi**

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola Ali ibn Abdulloh Samhudiy asaridagi Madina shahrining islomdan oldingi va islom davridagi ijtimoiy va iqtisodiy hayotini ilmiy tahlil qiladi. Tadqiqotda Madina aholisi, ularning ijtimoiy tuzilishi, savdo-sotiq va moliyaviy tizimi, shuningdek, ijtimoiy guruhlar va qabila tizimi o'rganildi. Maqolada tarixiy manbalar va Samhudiy asari iqtiboslari asosida islomgacha va islom davridagi iqtisodiy faoliyatning xususiyatlari ta'kidlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Madina shahrida ijtimoiy va iqtisodiy hayot islom kelishidan oldin ham rivojlangan bo'lib, islom davrida esa yangi huquqiy va ijtimoiy qoidalar bilan mustahkamlandi. Tadqiqot natijalari tarix va iqtisodiy fanlar bo'yicha ilmiy izlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar** : Madina, islomgacha davr, islom davri, ijtimoiy hayot, iqtisodiy tizim.

## **СОЦИАЛЬНАЯ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ ГОРОДОВ МЕДИНЫ В ДОИСЛАМСКИЙ И ИСЛАМСКИЙ ПЕРИОД В РАБОТАХ АЛИ БИН АБДУЛЛЫ САМХУДИ**

**Сохибова Умедахон Шухрат кизи**

Бухарский государственный университет, базовый докторант

### **Аннотация**

В данной статье представлен научный анализ социально-экономической жизни города Медины в доисламскую и исламскую эпохи, как это описано в труде Али ибн Абдуллы Самхуди. Исследование охватывает население Медины, его социальную структуру, торговую и финансовую систему, а также социальные группы и племенную систему. В статье освещаются особенности экономической деятельности в доисламскую и исламскую эпохи на основе исторических источников и цитат из труда Самхуди. Результаты показывают, что социально-экономическая жизнь в городе Медине развивалась еще до прихода ислама, а в исламскую эпоху укрепилась благодаря новым правовым и социальным нормам. Результаты исследования служат основой для научных исследований в истории и экономике.

**Ключевые слова:** Медина, доисламский период, исламский период, общественная жизнь, экономическая система.

## **SOCIAL AND ECONOMIC LIFE OF MEDINA IN PRE-ISLAMIC AND ISLAMIC PERIODS ACCORDING TO ALI IBN ABDULLOH SAMHUDIY**

**Soxibova Umedaxon Shukhrat qizi**

Bukhara State University, Basic Doctoral Student

### **Abstract**

This article provides a scholarly analysis of Medina's social and economic life in the pre-Islamic and Islamic periods based on the work of Ali ibn Abdulloh Samhudiy. The study examines the population, social structure, trade, financial systems, and tribal organization of Medina. Using historical sources and citations from Samhudiy's work, the research highlights characteristics of economic activity in both periods. Results show that social and economic life in Medina was well-

developed before Islam and further consolidated with new legal and social norms during the Islamic period. These findings serve as a reference for historical and economic studies.

**Keywords :** Medina, pre-Islamic period, Islamic period, social life, economic system.

Madina shahri Arabiston yarimorolining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, uning tarixi islomgacha va islom davrida alohida ahamiyatga ega. Ali ibn Abdulloh Samhudi asarida Madina shahri turli ijtimoiy guruhlar, qabila tizimi, savdo-sotiq va iqtisodiy faoliyatning xususiyatlari bilan batafsil tasvirlangan. Ushbu tadqiqotning maqsadi – Madina shahrining islomgacha va islom davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tarixiy manbalar, xususan Samhudi asari asosida ilmiy tahlil qilishdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI :** Madina shahri tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ali ibn Abdulloh Samhudi asari (Samhudi, XIV- XV asr) islomgacha va islom davridagi Madina hayotini tafsilotlari bilan tasvirlaydi. Asarda shahar aholisi qabilalarga bo'linganligi, savdo-sotiq va moliyaviy tizimning rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar yoritilgan. Boshqa tarixiy manbalar, jumladan Ibn Is'hoq, Ibn Hisham va Tabari yozmalari ham Madina shahrining iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tahlil qilishda qo'llaniladi. Shu manbalarga ko'ra:

- Islomgacha davrda Madina shahri savdo-sotiq markazi bo'lib, qishloq xo'jaligi va chorvachilik rivojlangan.

- Savdo-sotiq va moliyaviy tizim qabilalar va guruhlar orqali boshqarilgan.

- Islom davrida ijtimoiy tuzilish va iqtisodiy faoliyat shariat qoidalari bilan tartibga solindi, zakot va moliyaviy soliq tizimi tatbiq etildi.

**Tadqiqot metodologiyasi .**

1. Tarixiy-tahliliy usul: Samhudi asari va boshqa tarixiy manbalar tahlil qilindi.

2. Solishtirma usul: Islomgacha va islom davrining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi taqqoslandi.

3. Jadval tuzish: Madina shahridagi ijtimoiy guruhlar, qabilalar, iqtisodiy faoliyat turlari va savdo yo'nalishlari jadval orqali vizual tarzda ko'rsatildi.

**Tahlil va natijalar:** Tahlil natijalariga ko'ra, Madina shahri islomgacha davrda ham iqtisodiy jihatdan rivojlangan markaz bo'lgan. Shahar aholisi qabilalarga bo'lingan bo'lib, har bir qabila o'z iqtisodiy faoliyatiga ega edi. Madina shahrida islomgacha davrda ikkita asosiy ijtimoiy guruh yashagan: Arab qabilalari : Avs va Xazraj qabilalari, yahudiy qabilalari: Banu Nadiyr, Banu Qaynuqo, Banu Qurayza.

Avs va Xazraj qabilalari chorvachilik va qishloq xo'jaligida faol bo'lgan, savdo bilan shug'ullangan, Yahudiy qabilalari esa hunarmandchilik va moliyaviy tizimni rivojlantirgan va mustahkam qo'rg'on qal'alarda yashagan.

Avs qabilasi: Asosan Madinaning janubiy va janubi-sharqiy qismida yashagan. Ularning hududlari vohalarga va qishloq xo'jaligiga qulay joylarda bo'lgan. Ba'zi tarixiy manbalarda ular Quba atrofi va Madinaning janubiy vohalarida yashagani qayd etiladi. Asosiy faoliyatlari: chorvachilik, dehqonchilik, qabila ittifoqlari orqali harbiy faoliyat yuritgan.

Xazraj qabilasi asosan Madinaning markaziy va shimoliy hududlarida yashagan. Avs qabilasiga qaraganda son jihatdan ko'proq bo'lgan. Ularning hududi savdo yo'llariga yaqin bo'lib, iqtisodiy faoliyat rivojlangan. Asosiy faoliyatlari: savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Arab qabilalari bilan birga Yasrib hududida yahudiy qabilalari bo'lgan. Bular: Banu Qaynuqo– Madina shahar markazida, bozorlarga yaqin joyda yashagan. Ular ko'proq hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan.

Banu Nadiyr qabilasi – Madinaning janubiy – sharqiy qismidagi Muzaynab vohasiga yaqin qal'ali hududlarda yashagan. Bu yerlarda tabiiy suv oqimlari va quduqlar, sug'oriladigan unumdor yerlardan bo'lganligi sababli don ekinlari ekib dehqonchilik va xurmo bog'lari yaratib

bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Bu voha qabilalar iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Muzaynab vohasi qabilalar o‘rtasidagi iqtisodiy resurs hududi va qishloq xo‘jaligi markazlaridan biri hisoblangan. Bundan tashqari qal‘ali hududlarga yaqin joylashgani sababli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan.

Banu Qurayza Banu Nadiyr qabilasidan sal shimolroq qismida Mahzur vodiysida yashagan, ular ham qal‘alar qurib yashagan va qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Mahzur vodiysi: Madinaning suv va agrar tizimining muhim qismi hisoblanib, qabilalar o‘rtasidagi iqtisodiy hudud sifatida strategik jihatdan ahamiyatli vodiy deb tarixiy asarlarda e‘tirof etiladi. Samhudiyy Banu Nadiyr qabilalarining qal‘alarini mustahkam mudofaa inshootlari sifatida tasvirlagan. Hijratdan keyin ular Madina jamiyatining bir qismi bo‘lgan. Keyinchalik siyosiy ziddiyatlar sabab 625-yilda Madinadan chiqarib yuborilgan.

Banu Qurayza yahudiy qabilasi yashagan joylar mustahkam qal‘alar bilan himoyalangan edi. Bu qal‘alar vohalar, xurmo bog‘lar va qishloq xo‘jaligi yerlari atrofida qurilgan bo‘lib, qabila xavfsizligini ta‘minlash uchun xizmat qilgan.

Qal‘alarning asosiy xususiyatlari: Baland devorlar – dushman hujumidan himoya qilish uchun. Qo‘rg‘on minoralari – kuzatuv va mudofaa uchun. Ichki hovli va omborlar – oziq-ovqat va suv zahiralari saqlangan. Quduqlar – uzoq muddat qamalga bardosh berish uchun suv manbai hisoblangan. Qal‘alar qabila iqtisodiy markazi bo‘lgan. Ular savdo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash joyi sifatida ham ishlatilgan.

Bu qal‘alar haqida batafsil ma‘lumotlar quyidagi tarixiy manbalarda uchraydi: “Xulosat ul vafa biaxbari Daril-Mustafa” – Ali ibn Abdulloh Samhudiyy, “Sirat Rasulullah” – Ibn Is‘hoq, “Tarix ar- rasul val-Muluk” – At-Tabari.

Ali ibn Abdulloh al-Samhudiyy o‘zining mashhur asarida Banu Qurayza qabilasi haqida Madina tarixiga oid muhim va batafsil ma‘lumotlar keltiradi. Bu ma‘lumotlar asosan qabilaning kelib chiqishi, yashash hududi, qal‘alari, iqtisodiy faoliyati va islom davridagi voqealar tasvirlangan. Samhudiyy yozishicha, Banu Qurayza Madinada yashagan yahudiy qabilalaridan biri bo‘lib, ular qadimda Shom (Levant) hududidan Hijozga ko‘chib kelgan. Ular Madinaga ko‘chib kelgach: vohalarda joylashgan, qal‘ali mustahkam qishloqlar qurishgan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishgan, Avs qabilasi yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra ular ko‘proq Xazraj qabilasi bilan ittifoq tuzgan. Hijratdan keyin yuzaga kelgan nizolar sabab 624-yilda Madinadan chiqarib yuborilgan.

Sahudiyyning asarida keltirilishicha, yaxudiy qabilalarining qal‘alari umumiy soni 59ta bo‘lgan. Islom dini kirib elmasdan oldin yaxudiy asosan Madina shahrining hosildor, unumdor va obod yerlarini egallagan.

Islom davrida esa shahar hayoti sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi:

- Savdo-sotiq va moliyaviy faoliyat shariat qoidalari bilan tartibga solindi.
- Zakot, sadaqa va boshqa moliyaviy majburiyatlar joriy etildi.
- Qabila tizimi ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynashda davom etdi, ammo diniy birlik va shariat qoidalari asosida ijtimoiy tartib mustahkamlandi.

T/r	Qabila	Yashash hududi	Asosiy faoliyati
1	Avs	Madinaning janubiy va janubi-sharqiy qismi	Chorvachilik, dehqonchilik
2	Xazraj	Madinaning markaziy va shimoliy qismi	Savdo -sotiq, hunarmandchiik
3	Banu Qaynuqa	Madina markaziy qismi	Hunarmandchilik, savdo
4	Banu Nadir	Madina janubiy qismi	Dehqonchilik, bog‘dorchilik
5	Banu Qurayza	Madina janubi-sharqiy qismi	Dehqonchilik, bog‘dorchilik

### **Xulosa va takliflar / Conclusion and Recommendations**

Xulosa qilib aytganda, Samhudiylar arab qabilalari va yahudiy qabilalar qadimgi Yasribda yashab kelgan va uni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan. Jumladan : Banu Qurayza ko'plab qal'alarga ega bo'lganini yozadi. Bu qal'alar Madinaning eng mustahkam mudofaa inshootlaridan hisoblangan.

Samhudiylar Banu Qurayza iqtisodiy faoliyatini ham tasvirlaydi. Ular asosan: dehqonchilikning xurmo va don yetishtirish, hunarmandchilikning metalga ishlov berish va qurol yasash bilan shug'ullangan. Savdo ham yaxshi rivojlangan. Ular Madina bozorlarida savdo qilgan va boshqa qabilalar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatgan.

Samhudiylar yozishicha: Avs qabilasi bilan ittifoq tuzgan va bu ittifoq Madinada siyosiy muvozanatni saqlashga xizmat qilgan. Shu sababli Avs qabilasi ularni ko'pincha harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Hijratdan keyin Madinada Madina konstitutsiyasi tuzilgan va unda yahudiy qabilalari ham ishtirok etgan. Samhudiylar bu voqealarni boshqa tarixiy manbalar asosida keltiradi.

Samhudiylar yozishicha Banu Nadiyr yahudiy qabilalaridan biri bo'lib, ular qadimda Shom hududidan Hijozga ko'chib kelgan. Madinaga kelgach ular vohalarda mustahkam qal'alar qurib yashagan. Geografik joylashuvi Madinaning janubiy qismi, qishloq xo'jaligi uchun qulay vohalar, qal'ali qishloqlar bo'lib, bu hududlar Madina vohalarining eng unumdor yerlaridan hisoblangan.

Banu Nadiyr iqtisodiy jihatdan kuchli qabilalardan biri bo'lgan: xurmo bog'lari, dehqonchilik, savdo, moliyaviy faoliyat bilan shug'ullangan. Ular Madinada yer egalari sifatida ham tanilgan. Samhudiylar ma'lumotlariga ko'ra Banu Qaynuqo ham Madinadagi yahudiy qabilalaridan biri bo'lib, ular asosan Madina shahar markazida yashagan. Yashash joyi qulay, bozorlarga yaqin joy, savdo va hunarmandchilik hududi hisoblangan. Bu qabila Madinaning iqtisodiy markazida joylashgan. Banu Qaynuqo qabilasi ko'proq hunarmandchilik va savdo bilan mashhur bo'lgan: zargarlik, metallga ishlov berish, qurol yasash, bozor savdosi bilan shug'ullangan. Shu sababli Banu Qaynuqo Madina iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Madina shahri islomgacha davrda ijtimoiy-iqtisodiy markaz sifatida faoliyat yuritgan.
2. Islom davrida ijtimoiy va iqtisodiy hayot shariat qoidalari bilan tartibga solindi.
3. Ali ibn Abdulloh Samhudiylar asari tarixiy manba sifatida ishonchli bo'lib, shahar tarixini o'rganishda asosiy material sifatida xizmat qiladi.

#### **Takliflar:**

- Madina shahrining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini chuqurroq o'rganish uchun boshqa tarixiy manbalar bilan solishtirma tadqiqotlar olib borish.
- Shahar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini vizualizatsiya qilish uchun interaktiv diagramma va xaritalardan foydalanish.
- Madina shahrining tarixiy tajribasini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tadqiqotlariga tatbiq etish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Samhudiylar, Ali ibn Abdulloh. Xusat ul-vafa bi'axbari daril Mustafa, Damashq, 1972
2. Ibn Ishaq. Sirat Rasul Allah, Bag'dod, 8-asr.
3. Ibn Hisham. Sirat al-Nabi, Kairo, 9-asr.
4. Tabari, Muhammad ibn Jarir. Tarikh al-Umam wa al-Muluk, Bag'dod, 9-asr.
5. Lapidus, Ira. A History of Islamic Societies, Cambridge University Press, 2002.
6. Hodgson, Marshall G. S. The Venture of Islam, University of Chicago Press, 1974.
7. Donner, Fred M. Muhammad and the Believers: At the Origins of Islam, Harvard University Press, 2010.
8. Watt, W. Montgomery. Muhammad: Prophet and Statesman, Oxford University Press, 1961.
9. Lewis, Bernard. The Arabs in History, Oxford University Press, 1993.
10. Crone, Patricia. Meccan Trade and the Rise of Islam, Princeton University Press, 1987